

FARZAND MUVAFFAQIYATI YO'LIDA OTA-ONANING ROLI

Esirgapov Muhiddin Nizomiddinovich

Samarqand davlat chet tillar instituti Payariq Xorijiy tillar fakulteti "Umumiy fanlar"
kafedrası mudiri muhiddinnizomiddinovich@gmail.com

Marjona Jumaniyoz qizi Ravshanova

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

Yuldosheva Kamola Bakhron qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

Abduxakimova Umidaxon Xomitjon qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

Mirzayev Utkir Azamatovich

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

Anotatsiya: Mazkur maqolada farzand muvaffaqiyati yo'lida ota-onaning o'rni va ularning qo'llab-quvvatlashdagi ishtiroki haqida so'z yuritiladi. Unda oilaning sog'lom muhit yaratishdagi roli, ota-onaning motivatsiya berish va rag'batlantirishdagi ahamiyati hamda haddan tashqari bosimning salbiy ta'siri yoritilgan. Shuningdek, adabiyotlardan olingan fikrlar asosida ota-onaning farzand yutuqlariga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilinadi. Ushbu maqola ota-onalarni farzand tarbiyasida faolroq ishtirok etishga va ularning muvaffaqiyatlarini qo'llab-quvvatlashga undaydi.

Kalit so'zlar: Farzand muvaffaqiyati, ota-onaning roli, qo'llab-quvvatlash, oilaviy muhit, motivatsiya, tarbiya, rag'batlantirish, ta'lim, muvaffaqiyat omillari, ota-ona ishtiroki.

THE ROLE OF PARENTS IN THEIR CHILD'S SUCCESS

Abstract: This article discusses the role of parents in their child's success and their participation in providing support. It highlights the importance of creating a healthy family environment, the significance of parental motivation and encouragement, and the negative effects of excessive pressure. Additionally, the article analyzes factors influencing children's achievements based on ideas from literature. It aims to inspire parents to take a more active role in their child's upbringing and support their success.

Key words: Child's success, role of parents, support, family environment, motivation, upbringing, encouragement, education, factors of success, parental involvement.

О РОЛИ РОДИТЕЛЕЙ В УСПЕХЕ ИХ РЕБЕНКА

Аннотация:

В данной статье рассматривается роль родителей в достижении успеха их детей, а также их участие в оказании поддержки. Подчеркивается важность создания здоровой семейной атмосферы, значимость родительской мотивации и поощрения, а также негативное влияние чрезмерного давления. Кроме того, анализируются факторы, влияющие на успехи детей, на основе идей из литературы. Цель статьи — вдохновить родителей на более активное участие в воспитании детей и поддержку их успехов.

Ключевые слова: успех ребенка, роль родителей, поддержка, семейная среда, мотивация, воспитание, поощрение, образование, факторы успеха, участие родителей.

Har bir farzandning hayotda muvaffaqiyatga erishishi ortida ota-onaning e'tibori, mehr-muhabbati va qo'llab-quvvatlashi mujassamdir. Oila bolaning birinchi tarbiya makoni bo'lib, uning shaxsiy rivoji va yutuqlariga asosiy poydevor yaratadi. Farzandning o'ziga bo'lgan ishonchi, maqsadga intilishi va ijtimoiy muvaffaqiyatga erishishi ko'p jihatdan oilaviy muhitga va ota-onaning faol ishtirokiga bog'liqdir. Bugungi kunda ota-onalar nafaqat moddiy jihatdan yordam berishlari, balki bolalarining qiziqishlari, qobiliyatlari va maqsadlarini qo'llab-quvvatlash orqali ularga muvaffaqiyat yo'lini ko'rsatishlari zarur.

Ota-onaning sog'lom muloqoti va motivatsiyasi farzandning nafaqat o'qishdagi, balki hayotdagi muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim omillardandir.

Shu sababli, ota-onalar farzand tarbiyasi va ta'lim jarayonida o'z o'rnini yanada chuqurroq anglab, faolroq ishtirok etishlari kerak.

Farzand muvaffaqiyati yo'lida ota-onaning roli haqida Abdug'ani Abduvaliyev ta'kidlagan va shunday fikrlarni keltirib o'tgan: Oilada farzandning aqliy va ma'naviy rivoji uchun muhit yaratish – bu ota-onaning eng muhim vazifalaridan biridir. Bola o'zini qadrlangan va tushunilgan his qilsa, uning muvaffaqiyat sari intilishi yanada kuchayadi. Bu fikrni tasdiqlagan holda amerikalik faylasuf, psixolog, pedagog va ta'lim nazariyotchisi John Dewey ota-onaning ta'limdagi rolini quyidagicha izohlaydi: "Ta'lim va tarbiya birgalikda shakllanadi. Agar ota-onalar bolalarining ta'lim olish jarayonida faol qatnashmasa, ularning yutuqlari to'liq bo'lmaydi."

Shuni ham ta'kidlash joizki, muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini yaratishda oila muhiti barkamol avlod tarbiyasi va uning kamolotiga oid barcha masalalarni o'zida mujassam etishi darkor. Shunga ko'ra barkamol shaxs ilm va kasb-hunarga mehr-muhabbat, komillik sari intilish, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ahillik, insonparvarlik, tashabbuskorlik, odoblilik, e'tiqod va sadoqatlilik kabi fazilatlar ruhida

tarbiyalash ota-onaning eng asosiy vazifalaridan biridir. Abdurauf Fitrat " Rahbari najot" asarida shunday yozilgan jumalarni ko'rish mumkin: "Suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi bolalar ham shunday muhitda bo'lsalar, o'sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar."

Farzandning ilk tarbiya maskani bu onaning ko'ksidir. Ona tarbiya maskani biror zararga yo'liqsa, nasllarga o'nnglanmaydigan yaralar ochiladi, onani yo'qotadi. Ota-ona farzandi bilan muloqot jarayonida, ular bilan o'yin faoliyatlarida bolalar tarbiyasi va kelajagi uchun urg'uni tog'ri qo'yish ham talab qilinadi, chunki bolani yoshligidan nimaga qiziqtirib, o'sha narsaga ko'proq jalb qilsa, bolaning tug'ma qobiliyat va qiziqishlarini ham inobatga olsa, bolaning kelajagi uchun foydalidir.

Xulosalab aytadigan bo'lsam, farzandning muvaffaqiyatli va barkamol bo'lishida ota-onaning mehr-muhabbati, qo'llab-quvvatlashi va sog'lom muloqoti muhim ahamiyatga ega. Bola o'zini qadrlangan va tushunilgan his qilgan muhitda yutuqqa erishishga intiladi. Oila ilm, tarbiya va ezgu fazilatlar maskani bo'lib, ota-onaning faol ishtiroki barkamol avlod tarbiyasining asosidir. Shu bois, ota-onalar farzandlariga nafaqat moddiy, balki ma'naviy jihatdan ham ko'maklashishlari shart.

Ota-onaning farzand muvaffaqiyati yo'lidagi roli beqiyosdir. Ularning e'tiborli va mehribon munosabati bolani kelajakda yetuk shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi. Shunday ekan, ota-onalar har bir qadamida mas'uliyatli bo'lib, farzand tarbiyasiga jiddiy yondashishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nishonova S." Sharq uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi". Ped.fan.dok.diss... -T.:1988. -289b
2. Paul Tough. "How children succeed" . Kanadalik yozuvchi va jurnalist. - T.:2012.
3. Abdurauf Fitrat." Rahbari najot". o'zbek adibi, faylasufi, davlat arbobi va jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri. -T.:1915.
4. John Dewey." The School and Society". Amerikalik faylasuf, pedagog, psixolog va ta'lim islohotchisi. -T.: 1899.
5. " Al-jome' as-sahih" asari.Ilmni o'rganishning fazilati va Bilimni yetkazish va ulashish masalalari to'g'risidagi hadislar.
6. Maktab oiladan boshlanadi.-T.: Yangi asr avlodi. 2013